

**BUXORO VILOYATINING TABIIY RESURLARI VA ULARDAN OQILONA
FOYDALANISH MASALALARI**

Rizoqulova Nozima Ixtiyor qizi

O'zMU Geografiya yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Xakimov Kamoliddin Abdukarimovich

Ilmiy rahbar O'zMU Tabiiy geografiya kafedrası dots.v.b., G.f.f.d. (PhD)

+998901375533, Kamoliddin_001@mail.ru

Annotatsiya: *Bu maqolada Buxoro viloyatining tabiiy sharoiti va joylashgan geografik o'rniga nisbatan tabiiy resurslarini tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish, inson omili natijasida vujudga kelgan muammolarni o'rganish haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Tabiiy resurs, eroziya, parvarishxona, qayir, to'qay landshafti, voha, cho'l mintaqasi, o'tloqi, o'tloqi botqoq, botqoq, qum-shag'altoshli tuproq.*

Inson tabiatdan oladigan moddiy boyliklar yer osti boyliklari, suv, havo, tuproq, o'simliklar, hayvonot olami va boshqalar tabiiy resurs hisoblanadi. O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini muhofaza qilish: inson uchun zarur bo'lgan qazilma boyliklardan oqilona foydalanish, suv va havoni toza saqlash, tuproqni eroziyadan saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini tabiiy holicha asrab qolib qayta tiklashni hamda xushmanzara joylarni tabiiy holicha saqlash kabilarni o'z ichiga oladi. Lekin hozir tabiatga inson xo'jaligi faoliyatining ta'siri natijasida respublikamizning ba'zi hududlari shu jumladan, Buxoro viloyatida ekologik holati yomonlashib bormoqda. Havoning ifloslanishida energetika, next- gaz sanoati, transport, maishiy kommunal xo'jalikning hissasi katta. Buxoro havosi ifloslanishining 80%i avtotransport hissasiga to'g'ri keladi.

Respublikamiz havosini toza saqlash uchun korxonalarda zamonaviy tozalovchi inshootlar qurish zarur. Bunda havoni ifloslovchi moddalarni ushlab qolish ulardan qayta foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Buxoroda tabiiy muhit tuproq, daryolar suvining ifloslanishi, atmosfera havosining sanoat korxonalari va avtotransport chiqindilari ta'sirida bulg'anishi tuproqning sho'rlanishi, zaharli kimyoviy ashyolar va mineral o'g'itlar bilan boyishi, eroziyaga berilishi natijasida aziyat chekadi. Sho'r suv bilan sug'orish tuproqda sho'rlanishga sabab bo'lmoqda, suvdagi pestitsidlar sug'orish jarayonida meva, poliz ekinlari uzum va boshqalarning tarkibiga kirib bormoqda. Buxoro viloyatining ichki qismida sug'oriladigan o'tloq, o'tloq-alluvial tuproqlari joylashib, ularga ishlov berish tufayli tabiiy xususiyatini o'zgaritib, o'tloq voha tuprog'iga aylangan.

Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar

	tonna								
	2014y.	2015y.	2016y.	2017y.	2018y.	2019y.	2020y.	2021y.	2022y.
Buxoro viloyati	51 898,2	55 637,3	58 459,0	63 822,6	74 815,6	69 089,6	37 097,9	44 761,8	35 654,6
Buxoro sh.	17 120,5	20 149,2	23 092,7	32 667,0	31 612,6	27 284,1	1 580,4	1 978,9	3 728,7
Kogon sh.	2 307,3	1 522,8	3 287,7	464,7	308,7	228,6	146,2	270,8	275,0
tumanlar:									
Olot	190,0	2 250,0	1 652,3	6 751,5	13 922,9	14 560,3	9 239,7	14 803,0	9 237,1
Buxoro	165,0	232,5	385,2	347,5	640,3	43,2	59,0	1,2	1,1
Vobkent	43,7	46,1	20,0	10,3	465,3	34,6	28,3	22,9	22,9
G'ijduvon	122,6	122,9	122,1	106,9	334,9	207,5	200,5	372,9	108,8
Kogon	232,9	178,9	329,2	1 539,6	1 467,1	451,5	384,1	6 264,5	6 004,8
Qorako'l	40,7	35,7	64,0	72,5	102,3	80,8	45,4	24,8	29,5
Qorovulbozor	7 969,2	4 359,5	4 899,3	4 641,5	3 010,8	3 075,7	7 172,0	7 214,1	8 329,6
Peshku	32,0	111,0	17,9	10,3	7,2	13,8	7,4	6,2	6,2
Romitan	23 191,9	26 185,3	24 148,0	16 499,6	22 077,1	22 682,0	17 936,5	13 691,6	7 834,1
Jondor	391,3	385,8	353,9	662,0	824,1	418,9	288,8	89,6	58,0
Shofirkon	91,1	57,6	86,7	49,2	42,3	8,6	9,6	21,3	18,8

Buxoro hududida kamayib ketayotgan ayrim hayvonlarni muhofaza qilib, kòpaytirish uchun “Jayron ekomarkazi” parvarishxonasi tashkil etilgan. Bu yerda xalqaro “Qizil kitob”ga kirgan jayronlar muhofaza etiladi. Viloyatdagi sug'oriladigan o'tloqi, o'tloqi-botqoq, botqoq tuproqlarda madaniy o'simlikni qayir usti 1 terassasi qumoq, qumoq shag'altoshli ko'hna qayirlar landshaft hilida inson faoliyati tufayli grunt suvlari sathining pasayishi hamda tuproq namligining kamayishi namsevar to'qay o'simlik va hayvonlarning degradasiyaga uchrashiga va to'qay o'rmonlari maydonining qisqarishiga sabab bolmoqda. Buxoro O'rta Osiyodagi eng qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. Geografik sharoitga ko'ra hududining asosiy qismi tekislikda tipik qum cho'li Qizilqumda joylashgan. Viloyat hududining relyefi geomorfologik jihatdan birqator past tog'lar mavjud, murakkab tekislikdan iborat. Buxorodagi mavjud tabiiy geografik resurslar va foydali qazilmalarning katta zaxiralari O'zbekistonni mintaq va dunyoning tabiiy resurslarga boy mamlakatlari qatoriga qo'shadi. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Buxoro hududining keyingi davrlar tarixi juda murakkab, serqirra bo'lib Buxoro Qorako'l vohalari va uning atrofidagi yerlarini o'zlashtirilishi va Buxoroni O'rta Osiyoda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy markazlardan biriga aylanib kelganligi bilan bog'liqdir. Ushbu hududda cho'l mintaqasi ko'proq qismini egallagan natijada qishloq xo'jaligida keng ko'lamda turli xil tabiiy geografik va ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Shu sababli tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yerlarni geokologik holatini aniqlash va baholash muhim amaliy ahamiyatga ega. Qulay iqlim sharoitida ulkan mineral xomashyo zaxiralari strategik minerallar va yer resurslarining katta zaxiralari haqli suratda Buxoro viloyatining iqtisodiyotini rivojlantirishdagi bosh maqsad tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni tartibga solish tabiatning atrof-muhitning biron bir me'yorlar va qoidalarini ishlab chiqish va unga rioya qilish muammolar amaliy tarzda hal etilsa ko'p jihatdan hozirgi

va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi. Buxoro viloyatining yer resurslaridan va foydali qazilmalaridan oqilona foydalanish dolzarb masala. U atrof -muhitni muhofaza qilishning bosh omillaridan biridir. Foydali qazilmalarni olish va qayta ishlash chog'ida katta isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Eskirgan uskunalarni almashtirish yangi texnologiyalarni joriy etish ayrim sexlar, rekonstruksiyalash asosida foydali qazilmalarni yanada to'liq va oqilona qazib olish muhim vazifa bo'lib turibdi. Atrof muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan qaraganda sanoatning chiqindilarini o'zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sanoat kun sayin rivojlanib borgani sari viloyatda ham ekologik holat izchil sur'atda yomonlashib bormoqda. Atrof muhitni asrab avaylashga hamma bir jamoa bo'lib harakat qilmasa kelajak avlodning turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy hol. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zamonaviy qishloq xo'jaligiga agrotexnik usullarini tadbqiq etish sanoat korxonalarida atmosfera suv havzalariga va tuproqqa ifloslantiruvchi moddalarni zararsizlantirish, ekologiya kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish bilan bog'liq tarmoqlarini ekologik jihatdan zararsiz texnologiya yordamida rivojlantirishni ta'minlash imkoniga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, biz kelajak avlodni o'ylab tabiatni toza saqlash uni muhofaza qilish borasida ma'lumotga ega bo'lishimiz va unga rioya qilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Geografiya va O'zbekiston tabiiy resurs salohiyatini baholash muammolari"- Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent -2016
2. Avezov M.M., Mirakmalov M.T. Buxoro viloyati oronimlari va gidronimlari.- T.: "VNESHINVESTPROM", 2020.126 b
3. Baratov P. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" .-T.:2016.